

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**VALIEV UMID GULAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI  
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2026-yil**

UO‘K: 334.72.012.64-053.81(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Valiev Umid Gulamovich**

О‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini  
takomilashtirish .....3

**Валиев Умид Гуламович**

Совершенствование механизмов финансирования молодежного  
предпринимательства в Узбекистане .....29

**Valiev Umid Gulamovich**

Improving the Mechanisms of Financing Youth Entrepreneurship in Uzbekistan .....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....63

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**VALIEV UMID GULAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI  
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI  
TAKOMILASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2026-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.4.PhD/Iqt5952 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tiu.uz](http://www.tiu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Jumayev Nodir Xosiyatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ishmanova Dinora Nurmamad qizi**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yo'ldoshev Jahongir To'raboyevich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:** **Alfraganus universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.I.30.01 raqamli Ilmiy kengash 2026-yil "11"-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li 7-uy. Tel.: (998 95) 131-55-55, e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz)).

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil:100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li 7-uy. Tel.: (998 95) 131-55-55, e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" mart kuni tarqatildi.

(2026-yil "10"-yanvardagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.Sh. To'rayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

**A.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, dotsent

**D.A. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida yoshlar tadbirkorligi bugungi kunda iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida tobora ortib borayotganini alohida qayd etish zarur. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish - iqtisodiyotning barqaror o'sishi, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlar qatlamini shakllantirish vositasi sifatida qayd etib kelinadi. Albatta samarali moliyalashtirish tizimini yaratmasdan turib maqbul tadbirkorlik muhitini shakllantirib bo'lmaydi. Yoshlar tomonidan biznes loyihalarni amalga oshirish va barqaror rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri bu so'zsiz moliyaviy ko'mak hisoblanadi. Bunda nafaqat ajratiladigan mablag'larning miqdori, balki ushbu mablag'larning qanday shartlarda, qanday mexanizmlar orqali ajratilishi, biznes g'oyadan tayyor loyihagacha hamrohlik qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi jihatlar ham katta ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

Jahonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish amaliyotining iqtisodiyotdagi o'rni, uning mohiyati, shuningdek, davlat va xususiy sektor tomonidan bu amaliyotni tashkil etishning ahamiyati va zaruriyati kabi masalalar qamrab olingan. Biroq mavjud tadqiqotlarda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish amaliyotini samarali tashkil etish bilan bog'liq muammolar va stereotiplar, shuningdek, olis hududlarda yoshlar tadbirkorligi uchun infratuzilmaga ega bazalarni yaratish kabi o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (*OECD ya'ni Organisation for Economic Co-operation and Development*) ma'lumotlariga ko'ra 15-30 yosh orasidagilarning 39%i o'z biznesini boshlashni xohlashadi, ammo faqatgina 7%i real tadbirkor bo'lishga erisha oladi. Bu ko'rsatgichni past bo'lib qolayotganligini asosiy qiyinchiliklar bo'lgan muqobil moliyalashtirish tizimining mavjud emasligi hamda yoshlarda moliyaviy savodxonlik va tajriba yetishmasligi bilan izohlanadi<sup>1</sup>. Shu sababli, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish yo'nalishida olib boriladigan tadqiqotlar bugungi kunda ham o'z dolzarblik darajasini yoqatmagan.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun institutsional asoslar, me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan. Bunga qaramasdan afsuski yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha moliyaviy resurslarning quyi tizim mahallalardagi yoshlarga qadar yetarlicha yetib bormasligi, yoshlarda kredit tarixi hamda boshlang'ich kapitalning mavjud emasligi kabi muammolar yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida

---

<sup>1</sup> [https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/inclusive-entrepreneurship/youth.html?utm\\_source](https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/inclusive-entrepreneurship/youth.html?utm_source)

“Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish”<sup>2</sup> vazifasi alohida maqsad sifatida belgilab berilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari va 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son “Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 12-iyuldagi PQ-5124-son “Yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha iqtisodchi olimlardan Andrew Metrick va Ayako Yasuda, Paul A. Gompers va Joshua Lerner, Steven Dresner, Andrzej Brzeziński va Marian Noga, Philip Auerswald va Ant Bozkaya<sup>3</sup> kabilarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarining yetuk olimlaridan I.P. Belov, T.G. Belova, V.V. Nevolina, O.A. Boris, A.V. Nikulina, N.A. Simchenko, V.Yu. Ostriq, E.Yu. Kochesokova<sup>4</sup> va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida yoshlar tadbirkorligini darajasini oshirish masalalarini hal qilishning ilmiy-nazariy hamda uslubiy

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.

<sup>3</sup> Andrew Metrick va Ayako Yasuda. *Venture Capital and the Finance of Innovation*. 3rd ed. // Wiley, 2021 – P. 496; Paul A. Gompers va Joshua Lerner. *Why Are Investments Staged?* // *The Venture Capital Cycle (Second Edition)*, MIT Press, 2006 – P. 171; Paul A. Gompers va Joshua Lerner. *Exiting Venture Capital Investments* // *The Venture Capital Cycle (Second Edition)*, MIT Press, 2006 – P. 345; Steven Dresner. *reward, equity, debt, donation. intro + how to run campaigns.* // *Crowdfunding: A Guide to Raising Capital on the Internet*. Bloomberg/John Wiley va Sons. P. 7; Andrzej Brzeziński va Marian Noga. *Economics, Education and Youth Entrepreneurship (Routledge)* // *incubator/education-to-business Routledge*, 2022. – P. 138.

<sup>4</sup> Белов И.П., Белова Т.Г., Неволina В.В. Поддержка молодежного предпринимательства // «Инновации и инвестиции». № 12. 2019 С. 99-103. Борис О.А., Никулина А.В. Выявление мотиваторов к инновационному предпринимательству современной молодежи // *BENEFICIUM*. 2022. № 3(44). С. 98-104. Симченко Н.А., Острик В.Ю. Развитие молодежного технологического предпринимательства в условиях цифровизации // *Экономика и управление*. 2021. С. 120-127. Кочесоква Э.Ю. Исследование основных проблем и перспектив развития молодежного предпринимательства в РФ // *Juvenis scientia*. 2016. № 1. С. 50–51.

muammolarining ayrim jihatlarini ochib berishgan va ushbu masala bo'yicha tadqiqot natijalariga tayanib ilmiy-amaliy tavsiyalar berishgan.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy asoslari va talqini, shuningdek iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va statistik tahlil qilish usullari va modellari bo'yicha F.A.Raxmatullaeva, D.A.Ismoilov, B.I.Isomiddinov, M.X.Toshmatov, Sh.R.Hamidov<sup>5</sup> va boshqalar tadqiqot olib borganlar.

Yuqoridagi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish darajasi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, tamoyillar va mezonlarni baholash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va tendensiyalar ekonometrik modellashtirishni ishlab chiqish va prognozlash, asosiy yo'nalishlarini belgilash alohida obyekt sifatida qarab chiqilmagan. Bu esa tadqiqot mavzusi, uning doirasida maqsad va vazifalarni belgilashga sabab bo'ladi. Aynan shu holat ushbu dissertatsiya tadqiqot mavzusining zaruriyatini va dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini milliy va hududiy xususiyatlar, shuningdek raqamli iqtisodiyot va moliyaviy inklyuziya sohasidagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

yoshlar tadbirkorlik tushunchasi va nazariy asoslarini o'rganish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish ko'rsatkichlari va ularni o'lchash metodlarini tadqiq etish;

yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishdagi xalqaro ilg'or amaliyotlarini tahlil qilish asosida takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston sharoitida venchur kapital bozorini shakllantirishning huquqiy va institutsional asoslarini aniqlash;

fintex xizmatlari, raqamli to'lov tizimlari va elektron investitsiya platformalarining imkoniyatlarini tahlil qilish;

yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda davlat - bank - xususiy sektor hamkorligi modelini shakllantirish;

yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlari va bank amaliyotlarini ilmiy jihatdan baholash;

---

<sup>5</sup> F.A.Raxmatullaeva. "Yoshlar tadbirkorligi va uning o'ziga xos xususiyatlari" // In-Academy jurnali, 2025.; D.A.Ismoilov. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" // CyberLeninka, 2021.; B.I.Isomiddinov. "Kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish" // CyberLeninka, 2021.; Sh.Abdullayeva. Bank ishi. // Darslik.: Toshkent, 2003. – B. 262.; A.Omonov, T.Qoraliev. Pul, kredit va banklar. // Darslik.: Toshkent, 2012. – B. 306.; S.Elmirzayev va B.Mamatov (2022). Акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётларини самарали ташкил этиш масалалари. Moliya va Bank Ishi, 8 (4). B. 105–110.

amaliy tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish orqali yoshlar tadbirkorligining milliy ekotizimini mustahkamlash;

mavjud me'yoriy-huquqiy bazasi asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish jarayonlari, ularni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etuvchi davlat, bank va xususiy sektor subyektlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularni moliyaviy instrumentlar orqali qo'llab-quvvatlash jarayonlari hamda bu jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur dissertatsiya ishini bajarishda ilmiy izlanishlarning maqsad va vazifalariga muvofiq holda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning tizimli, iqtisodiy-statistik tahlili, so'rovnoma, guruhlash, kuzatuv tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi yer maydonlarida barpo etilgan tayyor ishlab chiqarish bino-inshootlarini yosh tashabbuskorlar tomonidan ipoteka shartlari asosida 7 yillik muddat (shundan 2 yillik imtiyozli davr) bilan xarid qilishi uchun moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etish taklif etilgan;

yoshlarning startup va raqamli texnologiyalar tatbiq etilgan innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda venchur va grant mexanizmlarini joriy etish taklifi tayyorlangan;

yoshlarning tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularni mehnat bozorida ish qidiruvchi (job seeker) subyekt sifatidan ish o'rinlarini yaratuvchi (job creator) tadbirkorlar qatlamiga transformatsiya qilish mexanizmi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tashkilotini bitiruvdan so'ng 5 yil davomida yoshlar tomonidan o'z biznes g'oyalari tayyor loyihagacha olib borish va risklarni boshqarish imkoniyatlarini oshishi aniqlanib, kelgusida yoshlarga faqat bitiruv bosqichida moliyalashtirish mexanizmlarini tadbiq etib qolmasdan balki bitiruvdan keyingi 3 yil muddat davomida ham moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bitiruvchilarning startup va kichik biznes loyihalarini bitiruv bosqichdan biznes-inkubatorlar, axboriy xizmatlar, mentorlik, tadbirkorlik fanlarini amaliy yo'nalishda o'qitish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali yoshlarning tadbirkorlik salohiyati oshirildi;

ekotizim orqali mahalliy hokimliklar, moliyaviy institutlar va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi muvofiqlashuv kuchaytirildi, bitiruvchilarning har bir loyihasi bo'yicha moliya, maslahat va monitoring jarayonlari yaxlit boshqarib kelinishi ta'minlandi;

oliy o'quv yurtini tamomlaganiga 3 yildan oshmagan bitiruvchilar uchun tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi;

yosh tashabbuskorlar biznes ko'nikmalarni shakllantirish kurslarida bepul, shu jumladan "onlayn" tarzda o'qitildi;

o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan yosh biznes tashabbuskorlarga sertifikatlar taqdim etilib, qulay shartlarda moliyalashtirildi;

respublikamiz bo'yicha tashkil etilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida yoshlarning biznes faoliyatini boshlash uchun infratuzilma yaratib berildi hamda ularning loyihalariga resurslar ajratildi

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni xalqaro tashkilotlar va boshqa rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari, biznes loyihalarni moliyalashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha qonunchilikni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, mamlakat va xorijiy olimlarning yondashuvlari va ishlanmalaridan keng foydalanilganligi hamda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning biznes loyihalari faoliyatini tartibga soluvchi organlar va tijorat banklari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikamizda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish va samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ilmiy hal etishda hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan sohaga oid qonunlar, qonunosti hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarini moliyalashtirish va samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manba sifatida hamda oliy ta'lim tashkilotlarida "Bank ishi", "Moliya", "Loyiha boshqaruvi" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yoshlar tadbirkorligi loyihalarini moliyalashtirish va samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi yer maydonlarida barpo etilgan tayyor ishlab chiqarish bino-inshootlarini yosh tashabbuskorlar tomonidan ipoteka shartlari asosida 7 yillik muddat (shundan 2 yillik imtiyozli davr) bilan xarid qilishi uchun moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etish taklifi 2023-yil 21-dekabrda "Surxondaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-400-sonli Prezident qarori ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Milliy bankning 05.12.2025 yildagi 02/7-8285/39-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida 7 nafar yosh tashabbuskorlar uchun sanoat ipotekasi asosida ajratilgan yer maydonlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan tayyor ishlab chiqarish bino-inshootlari barpo etildi hamda yosh tadbirkorlar tomonidan xarid qilinishi uchun 6,6 mlrd. so'm resurslar yo'naltirilgan;

yoshlarning startap va raqamli texnologiyalar tatbiq etilgan innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda venchur va grant mexanizmlarini joriy etish taklifi tayyorlangan taklifi 2025-yil 14-fevralda "Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-son Prezident qarori ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Aloqa bankning 02.12.2025 yildagi 31-04/6036-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2025 yil davomida yoshlarning startap va innovatsion loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 27 mlrd.so'm miqdoridagi resurs hisobiga 33 nafar yosh tashabbuskorlarning loyihalari moliyalashtirilgan;

yoshlarning tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularni mehnat bozorida ish qidiruvchi (job seeker) subyekt sifatidan ish o'rinlarini yaratuvchi (job creator) tadbirkorlar qatlamiga transformatsiya qilish mexanizmi taklifi 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-son Prezident qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan "Yoshlar biznesi" dasturini amalga oshirishda foydalanilgan (Aloqa bankning 02.12.2025 yildagi 31-04/6036-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2025-yil davomida yoshlarning ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 9 ming nafarga yaqin yosh tadbirkorlarga 995,4 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilgan;

oliy ta'lim tashkilotini bitiruvdan so'ng 5 yil davomida yoshlar tomonidan o'z biznes g'oyalarini tayyor loyihagacha olib borish va risklarni boshqarish imkoniyatlarini oshishi aniqlanib, kelgusida yoshlarga faqat bitiruv bosqichida moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etib qolmasdan balki bitiruvdan keyingi 3 yil muddat davomida ham moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish taklifi 2025-yil 3-noyabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-son qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi PQ-328-sonli Prezident qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan "Kelajakka qadam" dasturini amalga oshirishda foydalanilgan (Milliy bankning 05.12.2025 yildagi 02/7-8285/39-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarga oliygohni tamomlaganidan so'ng 3 yil davomida "Kelajakka qadam" dasturida yaratilgan moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyati taqdim etilib, 2025 yil davomida yuridik shahs tashkil etgan 612 nafar oliy ma'lumotli yoshlarning biznes tashabbuslariga 164 mlrd. so'm resurs yo'naltirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 4 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, milliy iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga monandligi aniqlangan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishni nazariy va metodologik asoslari”** nomli birinchi bobida yoshlar tadbirkorligi tushunchasi, xususiyatlari va moliyalashtirishni asosiy shakllari, yoshlar tadbirkorlikni moliyalashtirish modellari, shuningdek iqtisodiy maktablar tahlili, metodologik yondashuvlar va ilmiy nazariyalarning uslubiy jihatlariga e'tibor qaratilgan hamda bob bo'yicha nazariy xulosalar berilgan.

Jahon tajribasida yoshlar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Bunday tadbirkorlik ko'p hollarda startaplar, agrobiznes, IT sohalari, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy tadbirkorlikda namoyon bo'ladi.

Xorijiy iqtisodchilar tomonidan yoshlar tadbirkorligini tushuntirishda Shumpeter, Kanton, Druker kabi olimlarning innovasiya, tavakkalchilik va biznes tashabbus nazariyalari asos bo'ladi. Yoshlar tadbirkorligi tushunchasi turli manbalarda turlicha ta'riflangan bo'lib, ko'pincha bu tushuncha yoshlar tomonidan yangicha g'oyalar asosida biznes faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga e'tibor qaratilsa, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy ishtirokchilar sifatida yosh tadbirkorlar vakillari namoyon bo'ladi. Shu sababli so'nggi o'n yillikda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va samarali moliyalashtirish masalalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar natijasida bugungi kunda xalqaro amaliyotda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning ko'plab turlari yuzaga kelgan.

Milliy amaliyotda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalari afsuski keng tarqalmagan hamda mavjud moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq o'zlashtirilmagan qolmoqda. Jumladan, milliy amaliyotda biznesni moliyalashtirishda, odatda, bank kreditlaridan keng foydalaniladi, biroq fintex va venchur fond resurslarini jalb etish holatlari kam uchrashini ta'kidlash lozim. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalari hamda usullarining

xususiyatlari va imkoniyatlari turlicha ekanligini inobatga olgan holda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarining har birini alohida tadqiq qilish hamda milliy amaliyot uchun mosini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalari amal qilish muddatiga ko‘ra uzoq muddatli, o‘rta muddatli va qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga bo‘linadi. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalari shakllanish manbasiga ko‘ra biznesni moliyalashtirish ichki va tashqi manbalarga ajraladi.

Yoshlar tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari iqtisodiyotda biznes subyektlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi (1-jadval).

## 1-jadval

### Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning asosiy manbalari<sup>6</sup>

№	Manba turi	Tavsifi	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	Bank kreditlari	Tijorat banklari tomonidan muddatli qarz shaklida moliyalashtiriladi	To‘lovlarni qaytarish rejasi aniq, yirikroq summa olish imkoni mavjud, huquqiy himoyaga ega	Foiz stavkalari yuqori, garov talab etiladi
2	Vencher kapitali	Investorlar tomonidan rivojlanish bosqichidagi startaplarga yuqori xavfli, ammo katta daromad keltirishi mumkin loyihalarga sarmoya kiritiladi	Innovatsion loyihalar uchun katta imkoniyat	Tadbirkorlik hissasi ulushdor sifatida berilganligi, investor nazorati yuqori
3	Davlat subsidiya va grantlari	Davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaytarilmaydigan, beg‘araz mablag‘lar	Qaytarish talab etilmaydi, ijtimoiy samara kutiladi	Tanlov asosida, yuqori raqobatli, barcha arizalar qanoatlantirilmaydi
4	Xususiy investitsiyalar	Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar	Muzokara asosida shartlar kelishiladi	Investor talablari qat‘iy bo‘ladi
5	Kraudfanding	Internet orqali ommaviy mablag‘larni yig‘ish	Marketing va moliya bir vaqtda amalga oshiriladi, kichik mablag‘lar bilan ham loyiha moliyalashtiriladi	Kafolatlangan natija mavjud emas, marketing talab etiladi

Tadbirkorlikni moliyalashtirishning asosiy modellari bu - biznesni boshlash yoki rivojlantirish uchun zarur mablag‘larni jalb etish usuli bo‘lib, har bir modelning afzallik va cheklolari bo‘lib, ular biznes turi, hajmi va tavakkalchilik darajasiga qarab tanlanadi (2-jadval).

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tahlillar asosida tayyorlandi.

Tadbirkorlikni moliyalashtirishning asosiy modellari<sup>7</sup>

№	Model	Qo'llanilish sohalari	Afzalliklar	Kamchiliklar
1	Avtonom (shahsiy va oilaviy kapital)	Kichik biznes	Mustaqillik, foydani to'liq egalik qilish	Resurs miqdori cheklangan
2	Qarz (kredit hisobiga)	O'rta va yirik biznes	Katta mablag'ni olish imkoniyati mavjud	Foiz to'lovi va qarz majburiyati mavjud
3	Venchur kapitali	Startaplar	Innovasiyaga sarmoya, mentor jalb etish imkoniyati	Tavakkallik yuqori, ulushni yo'qotish xavfi bor
4	Grant mablag'lari	Ilmiy va ijtimoiy loyihalar	Qaytarilmaydigan mablag' turi	Talablar yuqori, resurs cheklangan miqdorda

Iqtisodiy nazariyalarda yoshlar tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirish masalalariga turli iqtisodiy maktablar tomonidan turli xil yondashuvlar shakllangan bo'lib, bu yondashuvlar asosan davlatning iqtisodiyotdagi roli va moliyalashtirish manbalariga bo'lgan munosabat bilan izohlanadi (3-jadval).

Iqtisodiy maktablarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirish yuzasidan yondashuvi<sup>8</sup>

Iqtisodiy maktablar	Davlatning roli	Moliyalashtirish manbalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Klassik	Minimal	Xususiy kapital va shaxsiy mablag'lar	Bozor erkinligi	Ijtimoiy tengsizlik
Neoklassik	Cheklangan	Xususiy va davlat aralashuvi	Balans va samaradorlik	Inqirozda samarasiz
Keynsian	Faol	Davlat investitsiyalari va grantlar	Iqtisodiy barqarorlik	Davlat qarzi o'sishi
Monetarist	Minimal	Xususiy investitsiyalar	Inflyasiya nazorati	Ijtimoiy masalalarga yetarlicha e'tibor mavjud emas
Zamonaviy gibril	O'rtacha	Innovatsiya sarmoyalar va moliyaviy institutlar	Innovasiya va barqaror rivojlanish	Amalga oshirish murakkab


Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning amaldagi holati va mavjud maummolar tahlili" deb nomlangan bo'lib, davlat tomonidan yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish dasturlarning amaldagi holati hamda Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya misolida

<sup>7</sup> Muallif tomonidan tahlillar asosida tayyorlandi.

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tahlillar asosida tayyorlandi.

xorijiy tajriba tahlili, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda mavjud muammolar va kamchiliklar, davlat dasturlari doirasida tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan yoshlar tadbirkorlik loyihalari tahlili va ularning samaradorligini baholashning amaldagi holati tahlil qilingan.

Xorijiy adabiyotlar xususan Jahon tadbirkorlik monitoringi (*GEM* ya'ni *Global Entrepreneurship Monitor*) 2024 yil hisobotlarida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishi, moliyalashtirish manbalari va innovatsion yondoshuvlar tahlil qilingan (1-rasm).



**1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida yoshlarning ulushi <sup>9</sup>**

Mazkur rasmda Yevropa mamlakatlari kesimida aholi va yoshlar (18-30 yosh) o'rtasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish ulushi taqqoslab ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, barcha mamlakatlarda yoshlar orasida tadbirkorlik faolligi umumiy voyaga yetgan aholi ko'rsatkichidan yuqoriroq darajada shakllangan.


**4-jadval  
Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimi qiyosiy tahlili<sup>10</sup>**

Mamlakat	Venchr sarmoya ulushi	Davlat qollab-quvvatlovi	Xususiy investitsiya	Bank kreditlari ulushi
Janubiy Koreya	50%	Cheklangan	Yuqori	20%
Turkiya	25%	Kuchli	Yuqori	35%
Malayziya	15%	Faol	O'rtacha	40%
O'zbekiston	10%	Kuchli	O'rtacha	45%

<sup>9</sup> Global Entrepreneurship Monitor (GEM) 2024-yil hisoboti, <https://www.gemconsortium.org/file/open?fileId=51621>

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tahlillar asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi 4-jadval yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimining xorijiy mamlakatlar kesimidagi qiyosiy tahlilini ifodalaydi va unda moliyalashtirish manbalari tarkibi hamda davlatning rolini yaqqol namoyon etadi.



**2-rasm. Turkiyada startaplarga mablag‘ jalb etish dinamikasi<sup>11</sup>**

Mazkur 2-rasmda 2010-2020 yillar davomida Turkiya startap ekotizimiga kiritilgan investitsiyalar hajmi va bitimlar soni dinamikasi aks ettirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilayotgan davr mobaynida Turkiyada startaplarni moliyalashtirish hajmi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Yoshlarning tadbirkorlik g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish maqsadida 2025-yilnini o‘zida Prezident tashabbusi bilan yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 3 ta muhim qaror qabul qilindi.

Birinchidan, 14.02.2025 yildagi PQ-60-sonli Prezident qaroriga ko‘ra, Yoshlar agentligi huzurida jamg‘arma tuzilib, unga 100 million dollar mablag‘ ajratildi. Tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so‘mgacha kreditlar berilib kelinmoqda. Jamg‘arma ichida venchur jamg‘arma ham tashkil etiladi, uning ustav fondi 10 million AQSh dollariga teng bo‘lib, istiqbolli startap loyihalarni moliyalashtiradi.

Ikkinchidan, 14.02.2025 yildagi PQ-61-sonli Prezident qarori bilan, oliy o‘quv yurti bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun “Kelajakka qadam” dasturi doirsida 100 million dollar yo‘naltirilib, bitiruvchilarning biznes tashabbus va g‘oyalarini loyihaga aylantirish bo‘yicha bank xizmatlari joriy etildi.


2025-yil 3-noyabrdagi PQ-328 sonli Prezident qarori bilan “Oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida “O‘zmilliybank” AJ hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o‘rtasida qo‘shma qaror imzolanib, dasturni amalga oshirish yuzasidan uslubiy qo‘llanmalar tasdiqlandi. “Kelajakka qadam”

<sup>11</sup> <https://www.dailysabah.com/business/tech/turkish-venture-ecosystem-breaks-investment-records-in-2020>

markazining hududiy bo‘linmalari, shuningdek ushbu bo‘linmalarga Bankning mas’ul xodimlari biriktirildi.


Shuningdek, Dasturni ommalashitirish maqsadida O‘zsanovatqurilishbank, Asakabank, Xalq banki, Mikrokreditbank, Agrobank, Turonbank va Biznesni rivojlantirish davlat tijorat banklari Dastur ishtirokchilariga aylandi.



**3-rasm. 2025 yilda oliy ta’lim bitiruvchilariga ajratilgan kreditlar (mlrd. so‘mda)<sup>12</sup>**

3-rasmda 2025-yil davomida oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining biznes g‘oyalari va tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan kreditlarining hududlar kesimidagi ko‘rsatkichlari taqdim etilgan.

Uchinchidan, 14.02.2025 yildagi PQ-62-sonli Prezident qaroriga asosan, Aloqabank yoshlarning biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi tayanch bankka aylantirilib, “Yoshlar biznesi” dasturini amalga oshirish uchun Davlat byujetidan 200 million dollar ajratildi. Bank o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million so‘mgacha 7 yil muddatga mikroqarz ajratib kelmoqda.




**4-rasm. 2025 yilda “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida ajratilgan kreditlar (mlrd. so‘mda)<sup>13</sup>**

<sup>12</sup> O‘zmilliybank AJ ma’lumotlari (01.10.2025y.) asosida tayyorlandi.

<sup>13</sup> Aloqabank ma’lumotlari (01.10.2025y.) asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi 4-rasmda 2025 yilda “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida hududlar kesimida ajratilgan kreditlar hajmi aks ettirilgan. Umuman olganda, mazkur rasm yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda hududlar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini va kredit resurslarini yanada muvozanatli taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi.

“Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” hisobidan respublikamizning barcha hududlarda kredit resurslari ajratib kelinmoqda (5-rasm).



**5-rasm. “Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi hisobidan ajratilgan kreditlar (mln. so‘mda)<sup>14</sup>**

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi “Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda davlat - bank - xususiy sektor hamkorligi asosida moliyalashtirish, yoshlar startaplarini venchur va kraudfanding orqali qo‘llab-quvvatlash, hamda innovatsion moliya instrumentlari bo‘lgan fintex, lizing va grantlar foydalanish imkoniyatlar tahlil qilingan. Uchinchi bob yakunida xorijiy tajribalari asosida shakllantirilgan xulosa va yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar bayon etilgan.

### 5-jadval

**O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligiga ajratilgan resurslar va yaratilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida ma‘lumot (2020-2024 yy.)<sup>15</sup>**

Yil	Ajratilgan resurslar (trln. so‘m)	Yaratilgan ish o‘rinlari (ming nafar)
2020	4,0	325
2021	5,2	360
2022	6,5	410
2023	8,0	480
2024	9,0	550

<sup>14</sup> “Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi ma‘lumotlari (2021-2024 y.) asosida tayyorlandi.

<sup>15</sup> Muallif tomonidan tahlillar asosida tayyorlandi.

2020-2024 yillar davomida O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga ajratilgan moliyaviy resurslar hajmi izchil oshib borgan (5-jadval).

Yoshlarning tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularni mehnat bozorida ish qidiruvchi (“job seeker”) holatidan ish o‘rinlarini yaratuvchi (“job creator”) subyektlarga aylantirish jarayonini ilmiy asoslash maqsadida ekonometrik modellashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu jarayon, avvalo, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati bilan yoshlar tadbirkorlik faolligi va yaratilayotgan ish o‘rinlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashni talab etadi.

## 6-jadval

### Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimi qiyosiy tahlili<sup>16</sup>

№	Inkubatorida qatnashgan yoshlar soni	Kredit (mlrd. so‘m)	Grant (mlrd. so‘m)	Investitsiya (mlrd. so‘m)	Yaratilgan ish o‘rinlari soni
1	50	1.2	0.5	5	10
2	55	1.5	0.7	7	15
3	60	1.8	0.8	9	20
4	65	2.0	0.9	10	25
5	70	2.2	1.0	12	30
6	75	2.5	1.2	15	40
7	80	3.0	1.5	17	50
8	85	3.2	1.8	20	60
9	90	3.5	2.0	22	70
10	95	4.0	2.2	25	85

Mazkur yuqoridagi jadval yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimining asosiy manbalari va ularning bandlikka ta’sirini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, moliyalashtirish hajmi oshgani sari yaratilgan ish o‘rinlari soni ham izchil ortib bormoqda.

Moliyalashtirishning turli manbalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda bandlik samaradorligi yuqori bo‘lishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, kredit, grant va investitsiya mablag‘larining kompleks tarzda yo‘naltirilishi yoshlar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari sonining tez o‘shishiga olib kelgan.

Umuman olganda, mazkur ma’lumotlar yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali bandlikni oshirish va yoshlarni ish qidiruvchi emas, balki ish o‘rinlari yaratuvchi subyektga aylantirish mumkinligini ilmiy va statistik jihatdan asoslaydi.

**Modelning nazariy asoslari.** Tahlilda bog‘liq (endogen) o‘zgaruvchi sifatida yoshlar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari soni tanlangan. Mustaqil (ekzogen) o‘zgaruvchilar esa moliyalashtirish mexanizmlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ladi.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan ekonometrik tahlillari asosida tayyorlandi.

*Bog'liq o'zgaruvchi:*

$Y_i$  - i-hududda yoki i-davrda yosh tadbirkorlar tomonidan yaratilgan ish o'rinlari soni.

*Mustaqil o'zgaruvchilar:*

$X_1$  - yoshlar tadbirkorligiga ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd. so'm);

$X_2$  – grant/subsidiyalar hajmi (mlrd. so'm);

$X_3$  - venchur va xususiy investitsiyalar ulushi (%);

$X_4$  - biznes-inkubator va startap dasturlarida ishtirok etgan yoshlar soni (ming nafar);

$X_5$  - moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik kurslari bilan qamrov darajasi (%).

**Chiziqli regressiya modeli.** Yoshlarni ish o'rinlarini yaratuvchi (job creator)ga aylanish jarayonini baholash uchun quyidagi ko'p omilli regressiya modeli taklif etiladi:

$$Y_i = \beta_0 + \beta_1 X_{1i} + \beta_2 X_{2i} + \beta_3 X_{3i} + \beta_4 X_{4i} + \beta_5 X_{5i} + \epsilon_i$$

bu yerda:

$\beta_0$  - erkin had (moliyalashtirish omillaridan tashqari ta'sir);

$\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_5$  - mos omillarning elastiklik koeffitsiyentlari;

$\epsilon_i$  - tasodifiy xatolik.

Iqtisodiy mazmuni: Agar  $\beta_1 > 0$  va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lsa, bu kreditlash hajmining oshishi yoshlar tomonidan yaratilayotgan ish o'rinlari sonini ko'paytirishini bildiradi.

Xuddi shunday,  $\beta_2$  va  $\beta_3$  koeffitsiyentlarining musbat qiymatga ega bo'lishi grantlar va investitsiyalar yoshlarni ish beruvchiga aylantirishda muhim rol o'ynashini isbotlaydi.

**Regressiya modeli.** Quyida ko'p omilli chiziqli regressiya modelini yaratamiz:

$$\text{Jobs} = \beta_0 + \beta_1 * \text{Kredit} + \beta_2 * \text{Grants} + \beta_3 * \text{Invest} + \beta_4 * \text{Incub} + \epsilon$$

Bu yerda:

Jobs - yaratilgan ish o'rinlari soni (bog'liq o'zgaruvchi);

Kredit, Grant, Invest, Incub - moliyaviy manbalar va ishtirokchilarning ta'siri (mustaqil o'zgaruvchilar);

$\beta_i$  - regressiya koeffitsiyentlari;

$\epsilon$  - tasodifiy xatolik.

Coefficients ( $\beta_i$ ) - har bir moliyaviy ko'rsatkich ish o'rinlari soniga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Misol uchun,  $\beta_1 = 15$  bu kredit hajmi 1 mlrd so'mga oshsa, yaratilgan ish o'rinlari o'rtacha 15 nafarga oshadi deb talqin qilinadi (shartli misol).

Ushbu misoldagi regressiya:

moliyalashtirish mexanizmlarining ish o'rinlari yaratishda muhim omil ekanini ko'rsatadi;

har bir qo'shimcha kredit, grant yoki investitsiya (koeffitsiyentlar musbat bo'lganda) ish o'rinlari sonini oshiradi;

model yordamida yoshlarni ish qidiruvchi (job seeker)dan ish o'rnilarini

yaratuvchi (job creator)ga aylantirish siyosatining samaradorligini raqamli baholanadi.

## 7-jadval

### Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarining tahliliy ma'lumotlari<sup>17</sup>

Hudud	Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini soni	Yosh tadbirkorlar soni (nafar)	Ajratilgan resurs (mlrd. so'm)
Qoraqalpog'iston Resp.	1	9	6.1
Andijon v.	20	12	9.1
Buxoro v.	3	32	20.2
Jizzax v.	4	22	15.7
Qashqadaryo v.	1	4	3.8
Navoiy v.	2	3	1.8
Namangan v.	10	14	8.5
Samarqand v.	4	22	26.4
Sirdaryo v.	5	17	14.3
Surxondaryo v.	5	7	6.6
Toshkent v.	7	4	2.0
Farg'ona v.	7	18	15.9
Xorazm v.	7	9	8.0
Toshkent sh.	1	37	32.7
<b>Jami:</b>	<b>77</b>	<b>210</b>	<b>171</b>

O'zbekistonda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarining hududlar kesimidagi rivojlanish holatini aks ettiradi. Tahlil natijalariga ko'ra, respublika bo'yicha jami 77 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi faoliyat yuritib, ularda 210 nafar yosh tadbirkor ishtirok etmoqda (7-jadval).

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etish yoshlarning biznes faolligini oshirish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish hamda hududlarda yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Regressiya modeli. Infratuzilma va maxsus hududlarning yoshlarning tadbirkorlik faolligiga ta'siri tahlili:

$$Y_i = \beta_0 + \beta_1 \text{Infrai} + \beta_2 \text{Edui} + \beta_3 \text{Crediti} + \epsilon_i$$

*Bu yerda:*

$Y_i$  - hududda yosh tadbirkorlar ulushi (%);

Infrai - infratuzilma indeks darajasi;

Edui - tadbirkorlik ta'limi darajasi (%);

Crediti - moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari.

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tahlillari asosida tayyorlandi.

Natija talqiniga ko'ra  $\beta_1 > 0$  bo'lganda infratuzilma yaxshilanishi yoshlar tadbirkorligini oshiradi. Umuman olganda, yosh tadbirkorlik ulushining 2020-2024 yillar davomida o'sishi:

$$CAGR = \left( \frac{Y_{2024}}{Y_{2020}} \right)^{\frac{1}{4}} - 1$$

Shartli ravishda  $Y_{2020} = 4.1\%$  va  $Y_{2024} = 8.3\%$  qabul qilsak,

$$CAGR = \left( \frac{8.3}{4.1} \right)^{1/4} - 1 \approx 0.20 \text{ (20\%)}$$

yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etilgan hududlarda yosh tadbirkorligining o'sishi tahminan 20 %ga teng bo'lishni kuzatish mumkin.

Bugungi kunda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida yosh tashabbuskorlar uchun sanoat ipotekasi asosida ajratilgan yer maydonlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan tayyor ishlab chiqarish bino-inshootlari barpo etilib, yosh tadbirkorlarga xarid qilinishi uchun resurslar yo'naltirilib kelinmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari sektorining kengayishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, innovatsiyalar asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan dastur va platformalar sonining oshishi kuzatilmoqda.

Mazkur jarayonda innovatsion g'oyalarning asosiy manbai bo'lib yoshlar hisoblanadi. Biroq statistik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, qulay moliyalashtirish mexanizmlarining yetishmasligi yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan raqamli startaplarning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qilmoqda.

## 8-jadval

### O'zbekistonda yoshlarning raqamli va innovatsion loyihalarini moliyalashtirish hajmi tahlili<sup>18</sup>

Yil	Raqamli startaplarga investitsiyalar (trln. so'm)	Innovatsion loyihalar ulushi (%)
2020	0,9	22
2021	1,4	27
2022	2,1	31
2023	3,0	36
2024	3,8	38

Yuqoridagi 8-jadvaldan besh yil ichida raqamli startaplarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 4 barobardan ortiq oshgani, innovatsion loyihalarning umumiy ulushi 22 foizdan 38 foizgacha ko'tarilgani ko'rinib turibdi. Hisob-kitoblarga ko'ra moliyalashtirish hajmi 1 foizga oshganda, innovatsion loyihalarning ulushi o'rtacha 0,4 foizga ko'payadi.

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tahlillari asosida tayyorlandi.


Statistik tahlil natijalariga ko'ra, yoshlarning raqamli startaplarini moliyalashtirish hajmi oshgani sari innovatsion loyihalarning ulushi ham mutanosib ravishda ko'paygan. Ushbu bog'liqlik korrelatsion tahlil orqali baholanganda, kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Bu holat qulay shartlarda moliyalashtirish yoshlarning innovatsion faolligini sezilarli darajada rag'batlantirishini ko'rsatadi.

Statistik kuzatuvlarga ko'ra, yoshlarning raqamli innovatsion loyihalarini moliyalashtirish: yangi ish o'rinlarini yaratadi, yoshlar bandligini oshiradi, norasmiy bandlik va tashqi mehnat migratsiyasini qisqartiradi, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlar ulushini kengaytiradi. Shuningdek, raqamli startaplar an'anaviy biznesga nisbatan 1,7-2 barobar yuqori mehnat unumdorligi bilan ajralib turadi.

Yoshlarning startap g'oyalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, jumladan raqamli texnologiyalar asosidagi innovatsion loyihalarni qulay shartlarda moliyalashtirish orqali ularning biznes tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish mexanizmi joriy etilmoqda hamda yosh tashabbuskorlar zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekistonda yoshlar tomonidan raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalarni qulay shartlarda moliyalashtirish so'nggi 5 yillik statistik tahlillar bilan tasdiqlangan bo'lib, mazkur jarayon yoshlarni ish qidiruvchi emas, balki yangi ish o'rinlari yaratuvchi iqtisodiy subyektga aylantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

